Mug'on xoqon mo'g'ul dashtlarida tartib o'rnatishga, eftaliylar va xitanlarni mag'lub etishga, shimoliy mulklarni (xususan, Tsigu) egallashga muvaffaq bo'lgan [18. 25]. Shuningdek, u g'arbga keng ko'lamli hujumlarni boshlab yuborgan. Mug'on xoqon tashqi siyosatda janubiy yo'nalishga alohida e'tibor qaratib, G'arbiy Vey (557-yilda Shimoliy Chjou nomiga o'zgartirilgan) bilan ittifoq tuzgan va Togon davlatini mag'lubiyatga uchratgan. Bundan tashqari, uning davrida Shimoliy Chiga muntazam bosqinlar uyushtiriladi. Xoqonlik hududi g'arbiy yo'nalishda ham kengayib borgan. 554-558-yillarda turklar Istami yabg'u boshchiligidagi g'arbiy hududlarga yurish qilib, Yettisuvni, Dashti Qipchoqni hamda Xorazmni bosib olganlar va Volga bo'yiga yetib boradilar.

Istilolarning dastlabki natijasi o'laroq, ulkan imperiya tashkil etiladi. Bu imperiya Sharqda Lyao dengizi (Lyaodung ko'rfazi) g'arbidagi yerlardan g'arbda G'arbiy dengiz (Kaspiy dengizi)ga qadar, janubda Shimoliy cho'ldan (Gobi sahrosi) shimolda Shimoliy dengizga (Baykal ko'li) qadar cho'zilgan edi. Shimol dashtlarining g'arbiy qismini bosib olish 580-

yillarning boshlarigacha davom etadi. Xoqonlik tarkibiga O'rta Osiyo, Kavkaz, Sharqiy Turkistonning qishloq va shahar aholisi mavjud bo'lgan juda katta hududlar kirgan. Ammo, xoqonlikning rivojlanishida cho'l kengliklaridagi ko'chmanchilarni bo'ysundirish va muayyan muammolarni hal qilish uchun ularni vaqtincha birlashtirish hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan. Shu maqsadda xoqonlar jo'janlarning to'liq mag'lubiyatga uchratilishi, Xitoyga bosqinlar, g'arbiy yo'nalishda kengayishga alohida e'tibor qaratganlar. Istamiy g'arb yurishi va Mug'on xoqonning Shimoliy Chi yerlariga bosqinchilik harakatlarining ancha keng qamrovli siyosati shuni ko'rsatadiki, imperiyaning dastlabki davrlarida Ashina sulolasi tashqi siyosatning asosiy yo'nalishi va harbiy-siyosiy vositalar orqali ortiqcha mahsulot olish shakllari hali to'la hal qilinmagan edi. Keyinroq Taspar xoqon boshchiligida Xitoy davlatlariga qarshi tajovuzkor siyosat yuritilishi bilangina xoqonlikning sharqiy yarmida harbiy kuchlarni markazlashtirish va siyosiy tizimni murakkablashtirish zarurati tug'ilgan [4. 36].

553-555-yillargacha turklarning qabila ittifoqida boshqaruv institutlarining shakllanishi haqidagi biror ma'lumot manbalarda aks ettirilmagan. Ammo, xoqonlikning e'lon qilinishi bilan hokimiyat iyerarxiyasini rivojlantirish zarurati ortgan. Ayrim "imperiya amaldorlari"ning unvonlari va vazifalari haqidagi aniq ma'lumotlar faqat xitoy manbalarida Mug'on xoqon hukmronligi davri tasvirlanganda tilga olinadi. Chjou va Suy sulolasi yilnomalarida xoqonlik muhim amaldorlari quyi mansablar bilan birgalikda atigi 20 kishini tashkil etishi ko'rsatilgan. Bular to'g'ridan-to'g'ri "shexu" deb ataladigan "yabg'u", "dyele" (tele, tegin), syelifa (geylifa, eltabar) [3.275, 288, 303. 10. 316. 23. 414. 21. 173] va tumaofa (balki, tudun) kabi lavozimlardir. Shubhasiz, bunday hokimiyat apparati imperiyaning keng hududlarida hokimiyat funksiyalarini bajarish uchun yetarli emas edi.

Birinchi Turk xoqonligidagi harbiy-ma'muriy tuzum Taspar xoqon davridagina shakllana boshlagan [13. 129-131, 133]. Turk xoqonligi siyosati yo'nalishlarini tubdan o'zgartirgan hukmdor Taspar bo'lib, u xoqonlikda markaz va qanotlarga ma'muriy bo'linish tartiblarini o'rnatadi. Markazni xoqonning o'zi boshqargan, qanotlarni esa uning eng yaqin qarindoshlari boshqargan. Qanot tizimi ko'chmanchi imperiyalarning an'anaviy xususiyati edi [1. 57-65. 2. 297-298. 15. 136. 25. 111. 17. 108]. Hukmron Ashina qavm a'zolari vakolatlarining ham o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lgan. Imperiyadagi ikkinchi shaxs "yabg'u" bo'lgan bo'lsa-da, u xoqonning vorisi bo'la olmagan. Faqatgina Buminning yabg'u unvoniga ega bo'lgan ukasi Istami g'arbiga tomon saltanat hududlarini kengaytirganidan so'ng mashhurlikka erishdi va g'arbiy hududlarning amalda mustaqil hukmdoriga aylandi. Istami manbalarda ham, ilmiy tadqiqotlarda ham ko'pincha xoqon (xon), yabg'u-qog'on deb ataladi. Ayniqsa, Kultegin va Bilga xoqon sharafiga yozilgan bitiklarda "Istami xoqon" nomining ko'rsatilishini misol keltirish mumkin [20. 36. 12. 61]. Bundan xulosa qilish mumkinki, xoqonlikning g'arbiy qismi hukmdorlarining maqomi boshida unchalik aniq bo'lmagan.

Xoqonlikni boshqarishda kichik xoqonlar va el xoqonlari ma'lum rol o'ynagan. "Kichik xoqonlar"ning oliy hukmdor etib tayinlanishi haqidagi bizga ma'lum bo'lgan birinchi fakt Mug'on xoqon davrida sodir bo'lgan. 563-yilda Mug'on xoqon kenja ukasi Ashin Kutouni "Ditou xoqon" nomi bilan xoqonlikning sharqiy yerlarini boshqarishga tayinlaydi. Xuddi shu yil tarixiga oid adabiyotlarda uchinchi xoqon Bo'ri nomi ham tilga olinadi [24. 227, 230]. Taspar aslida "birinchi ma'muriy hujjat" bilan Ashina Shetu (yoki Nyetu)ni xoqon (Bugut yodgorligida eslatilgan Nivar qog'onni) etib tayinlaydi va unga xoqonlikning sharqiy yerlarini boshqarishni ishonib topshiradi. Taspar o'z mulkining g'arbiy qismida "qolgan holda" Rudanning ukasi

Bo'rini xoqon qilib tayinladi [3. 233. 13. 130, 139. 24. 227]. V.V. Tishin ta'kidlashicha, Bo'ri Mug'on va Taspar xoqonlar davrida "yuqori mavqega ega bo'lgan" [24. 227]. Shuni ham ta'kidlash joizki, imperiyasining sharqiy hududlarini boshqargan Shetu xoqon keyinchalik (Tasparning o'g'li Anloning qisqa va muvaffaqiyatsiz hukmronligidan keyin) Shabolyue xoqon nomi bilan oliy xoqonlikka ko'tarilgan [3. 235. 24. 227].

"Kichik xoqonlar"ning boshqaruv amaliyoti Sharqiy Turk va Ikkinchi Turk xoqonliklarida ham mavjud bo'lgan. Shu asosda ba'zi tadqiqotchilar turkiy davlatlardagi boshqaruv haqida yozganda "qo'sh hokimiyat" institutiga alohida to'xtalganlar [13. 130. 25. 75-76, 95-96]. S.G. Klyashtorniy va V.A. Livshitsni "kichik xoqonlar"ni gubernatorlar deb ham atashadi [13. 130]. Boshqa mutaxassislar ularni o'ng va chap qanot yetakchilari, "feodal hukmdorlar" va boshqalar sifatida talqin qilishgan. Kichik xoqonlar tilga olingan xitoy yilnomalari va turkiy bitiklar syujetlarini tahlil qilish ayrim hollarda kichik xoqonlar yabg'u va shod (Mug'on xoqon boshchiligida Turk xoqonligida sharqiy yerlarni boshqargan Istami yabg'u, Ditou xoqon) ekanligini ko'rsatadi. Boshqa holatlarda imperiyaning Abo xoqon, ukasi Ashina Tamgan va boshqa hukmdorlari, yabg'udan pastdagi xoqonlar, yirik qabilalarning xoqonlari, hukmdorning to'ng'ich o'g'illari, taxt vorisligi prinsiplari buzilganligi va boshqa sabablarga ko'ra taxtga o'tirolmagan hokimiyatga da'vogarlar, nominal xoqon qo'l ostida haqiqiy boshqaruvchi va harbiy rahbar bo'lgan hukmdorlar bilan bog'liq holatlarda ham kuzatiladi [9. 14-15. 20. 68-69. 6. 470. 11. 115. 3. 259. 13. 129-130].

Shu munosabat bilan shuni alohida ta'kidlash joizki, Turk xoqonligining boshqaruv amaliyotida kichik xoqonlar deb ataladigan institut o'ziga xos rivojlanish bosqichlarini boshidan kechirgan va o'ziga xos funksional rolga ega bo'lgan. Mug'on xoqon va Taspar xoqon davrida, ya'ni xoqonlikning ma'muriy tizimi hali to'liq shakllanmagan davrda "kichik xoqonlar" imperiyaning yirik hududiy bo'linmalari ("qanotlari") boshliqlari vazifasini bajargan. Keyinchalik, "kichik xoqonlar" rolini imperiya shahzodalari, oliy hokimiyat uchun da'vogarlar o'ynadi. Shunday qilib, ularning hokimiyati hududiy xususiyatni saqlab qolgan va "xoqon" unvoni (xitoy manbalarida – "kichik xoqon") oliy hukmdorlarning yaqin atrofidagi odamlarning mavqeyini oshirish uchun ishlatilgan. Bo'rixon misolidan kelib chiqadigan bo'lsak, ularning o'z qo'shinlari bo'lib, ularning qo'l ostida ham turkiy, ham boshqa qabilalardan iborat askarlar jamlangan. Ikkinchi Turk xoqonligi davrida Qapag'on xoqon o'z o'g'illari – Bilga tegin va Inal xoqonlari "kichik xoqonlar" qilib tayinlaganligi ularning harbiy-siyosiy kuchini mustahkamlaydi [20. 68-69. 11. 115]. Masalan, Bilga tegin (Eltarish xoqonning to'ng'ich o'g'lidan farqli shaxs hisoblanadi) g'arbiy qanotda hokimlik qilgan, xoqonlik taxti uchun birinchi da'vogar bo'lgan. Bilga tegin bu hududdagi harbiy qismlarni nazorat qilish va boshqarish funksiyalarini bajargan va o'zini otasining hokimiyat vorisi deb hisoblash mumkin edi. Demak, "kichik xoqonlar" (yoki oddiygina "xoqonlar") turklarning ko'chmanchi imperiyalarining hokimiyat tuzilmasi tarkibiga kirgan va biz xoqonliklarning boshqa yuqori mansabdor shaxslari qatori ularning ta'sirini ham hisobga olishimiz kerak.

Otliqlar tarkibidagi harbiy unvonlar, qoracho'r va yuzlik bo'linma sardorlari, bo'ri-shod (qo'riqboshi), yabg'u shuningdek, sulolaning boshqaruvchisi kabi lavozimlar Turk xoqonligi ma'muriyati zanjirini tashkil qilgan. Yabg'u va shod unvonlaridan quyiroqda tutuqlar va undan kichikroq "mansabdorlar" turgan bo'lib, markaziy hokimiyat vakillari tomonidan tayinlangan. Qabilalar va qabila birlashmalarida jami 28 turdagi Xitoy yilnomalarida ko'rsatilgan. Ularning kelib chiqishi va tabaqalanishi siyosiy nufuziga alohida ta'sir ko'rsangan [3. 498-499].

Bugut yodgorligidagi sug'd yozuvlarining S.G. Klyashtorniy va V.A. Livshits tarjimasida shoda-piyt(lar), tarxvonlar, kurkapinlar, tudunlar tilga olinadi. Ko'rinishidan, bu yerda imperiyaning eng muhim amaldorlari sanab o'tilgan. Ularning, ehtimol, xoqon huzuridagi kengash tarkibiga kirganligi taxmin qilinadi. Olimlar tomonidan "kurkapinlar" atamasi turlicha talqin qilingan. Bir holatda, S.G. Klyashtorniy "kurkapinlar"ning kuch timsoli sifatida kamar olgan harbiy aristokratiya (yoki taniqli harbiy rahbarlar) qatlami ekanligini yozgan [13. 139-140, 142]. Boshqa birida u "yugurish" atamasiga o'xshashlikni taklif qiladi [12. 71]. Bugut yozuvidagi "kurkapinlar, qarindoshlar, (barcha) el" iboralaridan birining konteksti bunday talqinni istisno etmaydi. Ammo, ehtimol, "kurkapinlar" xoqon atrofida jamlangan harbiy rahbarlarning nufuzli darajasidan iborat bo'lgan.

Shod va tutuqlarning (ichki ishlar nazorat-boshqaruv organi) funksiyalarini bajarganligini hisobga olsak, imperiyaning cho'l mintaqalaridagi o'lka "ma'murlari"ni hech qanday holatda mansabdor shaxs deb bo'lmaydi. Imperiya boshqaruvi tizimi qabila boshliqlari va mahalliy hukmdorlar (begi, seylica, eltabarlar) ustidan nazorat o'rnatish va shu orqali imperiyani yanada mustahkam qilish imkonini bergan. Eltabar unvonini yirik qabila birlashmalari boshliqlari, irkinlar (erkin) esa alohida qabilalarni boshqargan [23. 412,414. 21. 37,39,87,104. 17. 105].

Unvonli zodagonlar va "mansabdorlar"ni saqlash uchun ularga berilgan moddiy daromad manbalariga dashtda ishlab chiqarilgan mahsulotlardan tashqari, Sharqiy Turkiston va O'rta Osiyodagi qaram ko'chmanchilar, qishloq va shahar aholisidan yig'ilgan harbiy o'ljalr, o'lpon, sovg'alar va soliq to'lovlari kiradi. Shuningdek, Xitoydan keltirilgan, xoqonlikning shimoliy chekkasi aholisi tomonidan yetkazib berilgan ipak, mo'yna sotishdan tushgan daromad va boshqalar ham zodagon qatlamning iqtisodiy jihatdan boyishiga xizmat qilgan. Taspar xoqon o'z imperiyasining qudratini anglab, O'rta podshohlik (Xitoy)da ishlab chiqarilgan turli obro'li tovarlarni, eng avvalo, ipakni qo'lga kiritish uchun Xitoy qirolliklarini qo'rqitish siyosatini yurita boshlaydi. Natijada Shimoliy Chjou shoshilinch ravishda turklar bilan tinchlik va qarindoshlik shartnomasi tuzdi. Unga ko'ra turklar har yili 100 ming bo'lak ipak olardilar. Shu bilan birga, Chi hukumati turklarga pul to'lash uchun xazinalarini bo'shata boshladi. Xoqonlik va obro'li begut elitasi tomonidan iste'mol doirasiga kirmagan ortiqcha ipak g'arbga yuborilib, Yevrosiyo shaharlarida sotilgan. Savdoning rivojlanishi xoqonlikda shaharlar siyosiy nazoratning barqaror tizimi va amaldorlar apparatini yaratishni talab qilgan. Bu turli xil soliq va yig'implarni joriy etish, tanga zarb qilish, ko'chmanchilarning bevosita boshqaruvda ishtirok etishi kabi davlat amaliyotlari paydo bo'la boshlaganligidan dalolat beradi. Tarixiy manba va adabiyotlarda, kamdan-kam holatlardan tashqari, birinchi xoqonlik turklariga bo'ysungan dehqonlar va shahar aholisining ortiqcha mahsulotini tortib olishning o'ziga xos shakllari ma'lum emas. Turklar Sharqiy Turkistonning (Gaochang, Kucha) bo'ysunuvchi vohalarida o'lpon, soliq va yig'implar yig'ishgan, deb taxmin qilish mumkin. Chunki Xitoy yilnomalarida turklarning bu mintaqadagi moliyaviy faoliyati haqida faqat bilvosita ma'lumotlar mavjud. Xususan, N.Bichurin 590-yilda to'rtta shaharning turklardan mag'lubiyatga uchrashi haqida yozadi. Xoqonlikka sovg'a-salomlar va mollarning kirib kelishi sulolaviy nikohlar (Gaochang hukmdorlari bilan) yoki Sharqiy Turkiston shaharlarida tutuqlarning bo'lishi mumkinligi orqali siyosiy jihatdan ta'minlangan [3. 254. 5. 296]. Xoqonlikning O'rta Osiyodagi siyosati ham xuddi shunday bo'lgan bo'lishi mumkin.

Imperiyaning tayanchini tashkil etgan haqiqiy ko'chmanchilar (turklar, telelar) soliq to'laganmi yoki yo'qmi degan savol xoqonlikning siyosiy tizimini tavsiflash uchun asosiy ahamiyatga ega. Manbalar bilvosita bunday hodisalarning mavjudligini ko'rsatadi. Biroq, shuni ta'kidlash kerakki, ushbu fikrning talqini Xitoyning boshqaruv amaliyotiga bo'lgan nuqtai nazarini aks ettiradi. Ehtimol, turklar orasida "soliqlar" haqida so'z yuritilishi XIII asrdagi mo'g'ul tajribasini eslatadi. O'shanda aratlar har bir podadan ikki yoshli qo'chqor yoki har 100 ot podasidan bir toychoq berganlar [16. 445]. Bundan tashqari, xoqonning ma'muriy faoliyati uchun "to'lov"ning o'ziga xos shakli bo'lgan ramziy "soliq" haqida gapirish mumkin. Mollardagi bunday "to'lovlar" hech qanday tarzda fiskal yig'imlarning mavjudligi yoki kelib chiqishining dalili sifatida tan olinmaydi. Oddiy ko'chmanchilarning xoqonni chorva bilan ta'minlashi ramziy va marosim xarakteriga ega edi. Birinchidan, ko'chmanchilar ko'pincha xoqonning diniy marosimlarni bajarishi bilan bog'liq tadbirlarga chorva mollarini olib kelishgan. Ikkinchidan, "soliqlar" yig'ib, ularni yozib olib, imperiya markaziga yetkazadigan oddiy byurokratik apparat ham yo'q edi. Uchinchidan, bu boyliklarni iste'mol qilish xoqon xonadoni tomonidan keng doiradagi sheriklar va hatto oddiy ko'chmanchilar bilan ham muqaddas marosimlar doirasida ommaviy ravishda amalga oshirilgan. Ular doirasida aholi o'zining harbiy, ma'muriy va marosim-sakral vazifalarini (qurbonlik qilish, qurbonlik ziyofatlarini uyushtirish, muvaffaqiyatli harbiy yurishlar olib borish va boshqalar) "to'g'ri" bajargan podshoh uchun ziyofatlar uyushtirgan va vaqti-vaqti bilan viloyatlar va mulklar bo'ylab sayohat qilgan. Xoqon siyosati viloyat elitasi va aholi bilan "muloqot" qilish, yuzaga kelayotgan muammolarni bevosita joylarda hal etishdan iborat bo'lgan. Hukmdorning qurbonlik ma'muriy funksiyalari uchun bunday "to'lov"ning yorqin misolini Skandinaviya xalqlarida ham uchratish mumkin [7. 45-46,56,78,182].

Tobe qabilalar xoqon va uning xalqi oldida turli majburiyatlarni oldilar. Bunday ko'chmanchilardan chorva, qurol-yarog' va boshqa mahsulotlardan soliq undirilar edi. Har xil vazifalarni yordamchi bo'linmalarda harbiy xizmatni o'tash va hokazolarni bajarishga qaram qabilalarning erkaklari jalb etilishi mumkin edi. Birinchi Turk xoqonligida imperator ma'muriy tuzilmalarining yakuniy shakllanishi bilan qaram xorijiy-ko'chmanchi guruhlarining itoatkorligini ta'minlash zarurati paydo bo'lgan. Bu, asosan, konsensual usullar bilan amalga oshirilgan (begutlarga nufuzli tovarlarni taqsimlash, ular o'z navbatida ularni qo'shnilar o'rtasida taqsimlash, yurishlar paytida oddiy ko'chmanchilarning o'lja olish imkoniyati, ko'chmanchilarning chegara bozorlariga chiqishi va boshqalar). Biroq, ba'zi qabila birlashmalari (masalan, Kidan va Shi) o'zlarini juda qattiq bo'ysunish shakllarida topdilar va bundan tashqari, vaqti-vaqti bilan talonchilik va zo'ravonliklarga duchor bo'lishdi. Bu holatda xoqonlikning harbiy tashkiloti hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, ko'chmanchilar siyosati birligini saqlashning asosiy instituti bo'lib xizmat qilgan [22. 312. 14. 19-26].

Telelarning orasida uyg'urlar ajralib turardi, ularning kuchlari bilan turklar "shimol cho'llarida qahramonlar bo'lgan". Telelar nafaqat jo'janlarni mag'lub etishda, balki Evrosiyoda keng ko'lamli istilolarni amalga oshirishda turklarga yordam berdilar [3. 301]. Turklar va telening ittifoqi dastlab jo'janlarga nafrat va ularga qarshi birgalikda kurashga asoslangan edi. Birinchi Turk xoqonligining kengayishi va tashkil topishi yillarida tele qabilalari bosib olingan yerlarda (Mo'g'uliston, Oltoy, Yettisuv va boshqalar) keng joylashdilar. Shuningdek, ular Xitoy va boshqa mamlakatlardan harbiy o'ljalari, sovg'alarga va umuman olganda turklardan keyin xoqonlikdagi imtiyozli mavqega ega bo'ldilar. Ularning ayrim urug'-qabila birlashmalari,

masalan, uyg'urlar, keyinchalik seyantolar, qarluqlar, qipchoqlar hokimiyat tepasiga ko'tarilib, ma'lum imtiyozlarga ega bo'ldilar. Shunisi e'tiborga loyiqki, VII asr boshlarigacha turklar Mo'g'ulistonda ichki qabila qo'zg'olonlariga duch kelmaydilar va tele qabilalarini o'zlarining asosiy harbiy tayanchi deb bilganlar.

Birinchi Turk xoqonligida ko'chmanchilarning ichki boshqaruvi, avvalambor, ko'chmanchi an'analar asosida qurilgan. Imperiya elitasi (Ashina urug'i vakillari va tutuqlar) va oddiy ko'chmanchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning boshqaruv shakllarining ustunligi ko'rsatkichi e'tiborlidir. Biz xoqonlarning huquqiy institutlarni, yozma qonunlarni joriy etishga urinishlari haqida ma'lumotga ega emasmiz va barcha tarixiy manbalar, aksincha, turklar orasida huquq va sud ishlarida an'anaviy huquq hukmronligini ko'rsatadi. Turklarning yozma yodgorliklari xoqonlikning siyosiy tashkiloti haqidagi haqiqiy turkiy tushunchani taqdim etadi, bu "el" tushunchalarida aks etadi. Tadqiqotchilar "el" atamasini turli yo'llar bilan tarjima qilganlar. S.E. Malov esa turli kontekstlarda elni qabila ittifoqi sifatida, keyin davlat sifatida talqin qilgan [20. 34,35,37. 19. 10,20-21]. Qabila ittifoqi (xalq) sifatida "Qadimgi turk tili lug'ati"da el deb tarjima qilingan[8. 168-169]. "El" tushunchasini imperiya yoki davlat sifatida talqin qilgan.

Turkiy matnlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, ularni tuzuvchilar uchun "el" so'zi turlicha ma'noga ega bo'lgan. Ayrim hollarda elning etnik asosi ko'rsatiladi, ya'ni u umumiy etnik identifikatsiyaga ega bo'lgan xalq, qabilalar ittifoqini bildiradi. Boshqa hollarda, ko'chmanchilar va ayniqsa ko'chmanchi elita nazarida "el" tushunchasi xoqon boshchiligidagi ko'chmanchi dunyoning tizimli va muqaddas birligini, yer tuzilishi idealini anglatgan [20. 33,41]. Xoqonlik ko'chmanchi xalqlarning boshqa barcha elatlarini birlashtirgan el vazifasini bajargan. Ehtimol, ko'chmanchilarning diniy-mafkuraviy g'oyalari "el" atamasi turkiy hukmdorlarning imperiya intilishlarini aks ettirgan va ko'chmanchilar dunyosi g'oyalari va qadriyatlarini tizimida "imperiya" tushunchasining o'xshashi bo'lib xizmat qilgan.

Xulosa. 582-603-yillarda Birinchi Turk xoqonligi imperiyadagi ichki nizolar, Ashina urug'i vakillari o'rtasidagi qarama-qarshilikka Suy hukumatining faol aralashuvi va turklarning tashqi siyosatdagi muvaffaqiyatsizliklari bilan bog'liq uzoq davom etgan inqiroz davriga kirdi. Avvalo, Birinchi Turk xoqonligi siyosiy tuzilishining, ayniqsa, markaziy apparatining tashkiliy zaifligi o'zini namoyon qildi. Ushbu davlat dehqonchilik byurokratiyasi (xitoylar, forslar, arablar va boshqalar) xizmatlaridan foydalangan mo'g'ullardan farqli o'laroq, Xitoy va boshqa mamlakatlar (uyg'urlar, xitanlar) ma'muriy tajribasini o'rgangan ko'chmanchilarning ma'muriy tajribalaridan ham foydalangan. Turklarda tarbiyalangan kotiblar, ulamolar, soliq tashkilotlari bo'lmagan. Xoqonlikda yaratilgan siyosiy iyerarxiya ko'chmanchi tajribasi nuqtai nazaridan ancha murakkab bo'lganligi sababli, imperiyaning ulkan hududini, ayniqsa uning qishloq xo'jaligi — shahar anklavlarini boshqarish uchun yetarli bo'lmaganligi aniq.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Golden P.B. Imperial Ideology and the Sources of Political Unity amongst the Pre-Chinggisid Nomads of Western Eurasia // Archivum Eurasiae Medii Aevi. – Wiesbaden: Harrassowitz Verlag, 1982. – Vol.II. – P.37-76.
2. Sinor D. The establishment and dissolution of the Türk empire / The Cambridge History of Early Inner Asia. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – P.285-316.
3. Бичурин (Иакинф) Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена / Т.1. – Москва – Ленинград: 1950. – 380 с.

4. Васютин С. А. Уйгурский каганат – цивилизационная альтернатива пасторальным империям Центральной Азии I тыс н.э. / С.А. Васютин // Вестник ТГПУ. – 2011. №11(113). – С.28-34.
5. Восточный Туркестан в древности и раннем средневековье. Очерки истории. – М.: Наука, 1988. – 451 с.
6. Гумилев Л.Н. Древние тюрки. – М.: Наука, 1967. – 525 с.
7. Гуревич А.Я. Проблемы генезиса феодализма в Западной Европе. – М.: Изд-во «Высшая школа», 1970. – 223 с.
8. Древнетюркский словарь. – Л.: Наука. Ленинградское отделение, 1969. – 677 с.
9. Жумаганбетов Т.С. Власть кагана в древнетюркской государственной организации // Вестник Челябинского государственного университета. – 2008. №34 (135). История. Вып.27. – С.14-19.
10. Киселёв С.В. Древняя история Южной Сибири. М. – Л.: Изд-во АН СССР, 1949. – 364 с.
11. Кляшторный С.Г. История Центральной Азии и памятники рунического письма. – СПб.: Филологический факультет СПбГУ, 2003. – 560 с.
12. Кляшторный С.Г. Памятники древнетюркской письменности и этнокультурная история Центральной Азии. – СПб.: Наука, 2006. – 591 с.
13. Кляшторный С.Г., Лившиц В.А. Согдийская надпись из Бугута / Страны и народы Востока, Т.10. – Москва: Наука, 1971. – С.121-146.
14. Крадин Н.Н. Империя хунну. – Владивосток: Дальнаука, 1996. – 278 с.
15. Крадин Н.Н. Кочевые общества. – Владивосток: Дальнаука, 1992. – 240 с.
16. Крадин Н.Н., Скрынникова Т.Д. Империя Чингис-хана. – М.: Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 2006. – 557 с.
17. Кычанов Е.И. Кочевые государства от гуннов до маньчжуров. – Москва: Восточная литература, 1997. – 319 с.
18. Латипов Ж. Хитанлар: давлатчилик сари йўл (монография). – Тошкент: Наврўз, 2019. – 92 б.
19. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности Монголии и Киргизии. – М. – Л.: Изд-во АН СССР, 1959. – 109 с.
20. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. – М. – Л.: Изд-во АН СССР, 1951. – 447 с.
21. Малявкин А.Г. Танские хроники о государствах Центральной Азии: Тексты и исследования. – Новосибирск: Наука, 1989. – 431 с.
22. Марков Г.Е. Кочевники Азии. Структура хозяйства и общественной организации. – М.: МГУ, 1976. – 318 с.
23. Материалы по истории древних кочевых народов группы дунху. Введ., пер. и комм. В.С. Таскина. – Москва: Наука – Главная редакция Восточной Литературы, 1984. – 486 с.
24. Тишин В.В. Порядок престолонаследия у древних тюрков VI-VIII вв. (по китайским источникам) // Общество и государство в Китае: XLII науч. конф. Т.2. – Москва: ИВ РАН, 2012. – С.226-232.
25. Трепавлов В.В. Государственный строй Монгольской империи XIII в.: Проблема исторической преемственности. – М.: Наука, 1993. – 472 с.9

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).